

AHMAD A'ZAM

QATAG'ON YILI

Hikoya

Yaxshigina izg'irin, yurganda baharnav, betni yalaydi, faqat quloqni jiz-jiz oradi, lekin bir joyda turganda etakdan kirib, badanni dildiratadi, yoqadan xuddi oqayotgandek quyiladi – boynimni qisib olganman, anchadan beri turganimdan elkam qonishibqotib, xuddi bir umr shunday boynimni qisib yashab kelayotgandekman, xayolimga ming xil umidsiz oylar keladi, ming toqqiz yuz sakson ikkinchi yilning noyabri, bo'lmasa, universitetni nuqul “a'lo”ga bitirganman, on yildan beri Toshkentdaman, lekin bor pulim chontagimda, borgunimcha yolkiraga etadi xolos, mendan olti yosh kichkina eshnazar boya o'zining “Jiguli”sida Jonboydan qaytdi, men yoldan otgan mashinaga sarg'ayaman, bu yog'i buyuq, qahraton qish, ko'klam sira kelmaydigan, kunlar endi ilimaydi.

Dalalarda yakkam-dukkam birchigit qolgan, sovxoz oktyabr oyi ortalarida planni dondirib bajargan-u, elu yurt hali hamon shu bajariqni toldirolmay jonhalak, bo'l-ha-bo'l hiqildoqqa kelgan.

Oftob – beta'sir shiorga oxshaydi – charaqlaydi, tafti yoq, chor-atrofga eski uvada sochilgandek – kir qor.

Mashina har zamonda otib qoladi, bari to'la, biron taziyalik joyga borayotganini aytmasa, beruxsat yurish yoq, yolda hujjatini olib qoyadilar; boya avtobus vang'illab yonboshlagancha toxtamay otib ketdi, umid shundan edi, buni ham egam kop kordi.

- Qo'ling tolgandir, menga ber, - deb qalin kiyimda pish-pish uxlayotgan og'limni ayasining qolidan oldim.

Obroni qoldan bermay, xotinni gapga alahsitaman:

- Manavi yo'l Istalin, Poshkin, Qo'lbosti, Leninobod, Kalelin, degan qishloqlarimizdan, bunisi Ettiurug', Kakanavich, Botbot, Navroztepadan keladi, bu yoqda Moltip, Qoybeship, Varashilop degan qishloqlarimiz bor.

- Moltip – shong'ib deganimi yo Molotovmi – deb qiziqsinadi xotinim.

- Moltip – Molotov, Kakanavich – Kaganovich, Varashilop – Voroshilov... mayda kolxoz zamonidan shu otlar kelyapti, ozlari urilib, kimligi odamlarning esida ham yoq, lekin oti el og'zida qolgan. Qoybeship – Kuybishev... Qiziq-da, mana “Sanoat”, “Davlatli turmush” degan qishloqlarning oti ham shunaqa. Bittasining oti “Emxashak”. ey, zor-ey, molbozorda “Moltipning moli”, “Qoybeshipning moli” deb turishadi. Masalan, Kakanovichning moli Maskvaga tog'ri kelmaydi, chunki Maskvaning havosi past Kakanovichning moli erda

chidamaydi, issiqlab qoladi. Zor-ey, yolda, o'zing kording, Svinsovxoz degan joy bor, "Qaydan bo'lasiz" desang, "Svinsapxozdan", deyishadi, "Yo'q, asli tug'ilgan joyingizni ayting", desang "Tug'ilgan joyimiz ham shu Svinsapxozda, u yog'ini bilmasak", deyishadi. Qara-e, boshqa yoqqa bursang, nima ma'no chiqadi.

Izg'irinda gapiraversa odamning jag'i ham og'rib qolar ekan, akam g'ir etib "Perekroska"ga – Toshkent yo'liga tashlab kelardi, shu vaqtiga kelib moshini buzilib berganini qara, yosh bola bilan hammaga tomosha bo'lib turibman, deb ichimga siqilaman. Bu orada otgan-ketganlar bilan salomlashib ham turaman: Birovi uzoqdan bosh irg'aydi, biroga ikki qadam boraman, yonimga kelgani qo'limni hovuchlaydi boshqasi qo'l olishadi-yu, pichirlab qoyadi yo bo'lmasam, xuddi ta'na qilayotgandek "Ha-a" deydi, boshqa so'z qotmaydi, aybing bordek dovdirdaysan. Otda, eshakda otayotganlar jilov yo noxtani nomiga bir tortib, iyak qoqadi – yo salomi, yo aligi; mashinada ketayotganlar xuddi tanimagandek xomrayib keladi-yu, birdan burnini silkitadi – bu ham hisob.

Katta yo'lning chorrahasi, chorrahasida gap kop, qishloqqa juda kam kelaman, toy-marakaga aralashish yo'q, tobutkash bo'lolmayman, kelganimda fotihalik joylarning hammasini bir qilib kirib chiqaman, hamqishloqlarim bilan ko'rishib sorashadigan joy – shu chorraha, shu erda turishimga qarab, qandayligimga xulosa chiqarishadi, boya Abdugalil dod-muomala qilgandan keyin bir xotinimga bir shlyapamga qarab qoydi-da: "Sen ham endi qishloqdan uzildingda", deb ketdi.

- Shuncha qishloqning bariga bizning ~azira – markaz. Bozori bor-da. Bozor bor qishloq tevaragidagi hamma qishloqni birlashtiradi, ularga o'ktamlilik qiladi, odamlari ham uddaburon bo'ladi. ~aziraning ozidan uchta professor, ottiz nechta kandidat chiqqan. Ilmga bunday berilgan qishloqni eshitmaganman. Bitta Otaboy degan joy bor. Lekin u Turkistonda.

- Shunday qishlog'ingizga alohida avtobus qoyishsa bo'lasmikan? – deydi xotinim ma'yuslanib.

- Ha, kep qolar, - deyman, - chakkifurush kopayib ketadi deyishadi-da. Shusiz ham Samarqand bozorida "chakki qaerniki?" desang, hammasi "~aziraniki!", deydi. Sen bu gaplarni qoy, qara, melisa kelyapti. Qanday par tushgan qishloqqa! Bekorga alohida melisa qoyishmagan!

Rostdan, Stalin tomondan melisa kelayotgan edi, bizga yaqinlashib qolgan.

Xotinim tirsagimga turtdi:

- Qarang... bir chol kishi sorashayapti.

Bu yoqqa qarasam – Saidbovo, ~aziradan chiqib, ~arovtepasiga qayrilish joyda toxtab, biz tomonga jilmayib, tez-tez bosh irg' Ayapti. Tovushini eshitmasam ham, kallasini qimirlatishidan nima deyayotganini bilaman: "e-e, eshonbovo, yaxshimisiz? Qaytyapsizmi?... Bir kelgan ekansiz-da. Toshkanlar yaxshimi? e-e, kelin shumi?... Shunday-shunday kep turing-da..." Shunga yarasha javob qilaman: "O'zingiz yaxshimisiz? Bizning sinfdosh O'rin qanday? Nevaralar... Ha, shu,

qaytyapmiz endi...” Albatta, u ham eshitmaydi – oramiz ancha, baqirib sorashmaymiz-ku kochada.

- Borib salomlashmaysizmi, yoshlari ulug’ ekan, - dedi xotinim.

- Biz-da shunaqa, hammasi bosh bilan, qimirlasa – bas, - dedim.

Rostdan ham shunaqa, kormay qolmasang bol’di, ishqilib.

Lekin Saidbovo sorashib bol’gandan keyin yo’lni biz tomonga soldi. Dokonga kirmoqchi shekilli. Bari bir yonimdan otadi, ikki qadam peshvoz chiqmasam bol’mas, chollar bilan qoshqo’llab sorashish kerak.

- Ma, bolangni ushlab tur, - dedim xotinga.

Shunday bol’adi: avval yurishni oylaysiz, ozingizning qay bir soniyasida gavgangiz oldinga intilib, hali oyog’ingiz qimirlamagan ham bol’adi; mana shunday – gavgam xarakatga kelib, bu qozg’alish oyoqlaringa otay deganda naq qulog’im tagidan, “Qayoqqa?!” degan amirona tovush yangrab, yana qotib qoldim.

Qarasam, boya Stalin tomondan kelayotgan milisa yigit qavatimda turibdi. Menga emas, Saidbovoga qarab baqiryapti:

- Ov boboy, toxtang! Qani, men kimga aytyapman?!

Saidbovo joyida taqqa toxtadi.

yana shunday bol’adi, ko’z ongingizda nogahon, kutilmaganda, bir be’manilik kechadi, kallangiz tog’ri ishlab turadi-yu, lekin bu hodisa haqida undan ham be’maniroq o’yga borasiz. Men ham tuyqusdan shunday xayolga boribman: boboyi tushmagur ~aziradan biron narsani omarib kelyapti, deb oylabman. Xuddi hozir melisa yigit yugurib boradi-yu, shartta quv boboyning malla chakmoni yoqasidan ushlaydi. “Ablah! Qolga tushding-ku!” bir-ikki siltab, qolini qayirib, odiga solib ketadi. Dabdurustdan shunday tuyuldi menga!

Lekin melisa yigit mening yonimdan qozg’almay, yana baqirdi:

- Boya nima dedim sizga, a? Boya?!

Uning baqirig’idan og’ilcham uyg’onib ketdi, qarang-ey, bir yoshdan sal oshgan godak, yig’lamadi, melisaga “Jinnimi bo’?” degandek bir qaradi-da ayasining boynidan mahkam quchoqlab oldi.

- O’zbek tilida aytdim, yaxshilikcha keting, chuvalashib yurmang, dedim. Quloq bormi, quloq?! yo jun bosganmi? Keting, demadimmi?

Saidbovo xuddi korinmas moshin-g’altak ip bilan joyiga chandib qoyilgandek, yurishga ham, turishga ham oxshamaydigan bir harakat qildi-da, melisaga jovdirab qaradi.

~alati odam-ey! Boya ~azirada, keting, dedim-a! – Melisa qolini paxsa qildi. – yo demadimmi?!

Saidbovo nihoyat tilga kirdi:

- Dedingiz, ulim, dedingiz...

Cholning tilga kirgani battar melisaning hamiyatini qozg'adi:

- Degan bolsam, qani ketganingiz?

Keting deganimga qachon boldi? Men Istalinga borib kelyapman. A, qani ketganingiz? Haliyam ko'zga tikan bo'lib yuribsiz-ku!

Saidbovoning beti pir-pir uchdi, menga najot soragandek qarab qoydi. Men esa melisaning dag'dag'asidan shoshib, aralashishga ham, aralashmaslikka ham hayron, kalovlanib turibman, bularnikini juft demasang bo'lmasa... Saidbovo boynini qisib, xoksor g'uldiradi:

- Tursunxonning magaziniga pechka keptimikan, deb kiruvdim, uyam yoq ekan. endi opkesang, bitta opqoy, dedim. eskisi nihoyati tutayapti. Aytganingizdan keyin ozim ketayotgan edim. endi bu yoqda...

Melisaning battar jahli chiqdi:

- Ov boboy! Jonga tegdingiz lekin! Boya nevaramga jilob olaman dedingiz! endi bu gap chiqdimi?! Qarib, miyangizni eb qoyganmisiz?

- Endi, og'lim, tog'ri, qarichilik, miya qolmagan... Qaytayotgan edim, shu...

- Turibsiz-ku shu erda?! Qani ketganingiz?! e-e, yana nimaga bu yoqqa yuryapsiz? Boyadan beri qarab kelyapman, bu boboy ketadimi, yoqmi, deb... - Melisa yigitning tovushi yana balandladi, keyingi gapi endi atrofga ham tegishli edi. – Nima qilay sizni, a, oborib tiqib qoyaymi yo?

Bir xil odamlar oxshab bu ham baqirsa kozi oldidagini kormay qoladi shekilli, Saidbovoning pusibgina ancha beri kelib qolganini sezmad, payqagandan keyin jon-poni chiqib ketdi:

- Iya, yana kelyaptimi bu boboy!? Ov, kimga aytayapman?! Soqolim bor deb... He, osha pechkangizniyam!.. Ov, toxtang, deypman! Quloq bormi? Obketaman lekin, panjaradan termiltirib qoyaman!

Saidbovo yana toxtadi, yana javdiradi, men ham g'alati bo'lib ketdim: nima qiladi nevarasi tengi bola bilan manjashib, ket degandan keyin ketavermaydimi, hozir bularning quturgan payti bolsa...

- Ulim, yana bitta kechiring... Iltimos, shunday bir...

- Iltimos-piltimos yoq! Jonang!

- Bir minutga... shunday bir...

- Achchig'imni chiqarmang lekin...

- Ulim, siz ham bir musulmon...

- Yoq, kopirman! Shuncha aytdim, soqoli bor, dedim, endi – bas!

- Ulim, bu dunyoda!..

- Chaynalmang! Bu dunyongizni yig'ishtiring! Nima deypman sizga?!

- Ketaman, ulim, ketaman, oldin shu...

- Oldin-poldin yoq! Vsyo! Turgan joyingizdan krugom marsh!

Saidbovo nochor turib qoldi. endi melisaning gaplari shunchaki doqqa oxshamay borayotgan edi. Men ham bir mujmal ahvoldaman, melisaning gaplari Saidbovodan kora, nimagaligini hali bilmayman-u, ishqilib, menga qaratilayotgandek edi, lekin boboyning ham qaysarlini tushunolmay turibman.

- Tamom, chokirtak soqolingizga qaramayman! Obketaman! Bu yog'i prinsip!

- Hay, ulim, shu domilla bilan bitta korishay! Keyin marsh bo'lsa – marsh-da! Tez ketaman.

- Ey, dunyoi qotir! Mana gap qayoqda ekan!

- Mumkin emas! – Melisa qulochini yoyib, cholning yo'lini to'sdi. - Toxtang! Aytganimni qiling, deya'man!

Men Saidbovoga intildim, u kishi melisaning qulochi tagidan chaqqon egilib otib, qolimni oldi.

- He, bizniki shul-da, ulim, - dedi chol menga, "korayapsan-ku, bolam, qanaqa yashayapmiz degan ma'nodagi hasratda, keyin sorashdi. yaxshimisiz, bolalar yaxshimi?"

Kozim cholda, bor diqqatim melisada: kokarib, qaltqalt titraydi, urishganlarni ajratish boshqa, korishganlarni ayirish bir boshqa ekan, nima qilishini bilmaydi, faqat kozining paxtasini chiqaradi: "Bo'ldi, bo'ldi, bas. Bobo, sizga aytayapman. Bo'ldi, deya'man", - deydi nuqul.

Saidbovoning qo'lini qisimlab uzoq sorashdim, cholning qo'llari qadoq, siqib sorashganda toshdek botardi. Men Orinboyni, Suyunboy akani, biz bilan – ukasi ikkovi bir sinfda – sakkazinchigacha oqib, keyin uy qilib ketgan qizining bolalari nechta bo'lganigacha surishtirdim.

Saidbovo oxiri qo'lini kuch bilan tortib olib, melisaga qaradi, sal engil tortdi.

- Mana ulim, sorashdim, - dedi unga.

- Bo'ldi , sorashgan bo'lsangiz, endi keting, turmang bu erda, - dedi melisa yigit sal shashtidan tushib.

Melisaning yumshagani solga ham ta'sir qildi, tushuntirishga kirishdi.

Ozi ketayotgan edim. Tushunaman, hozir qattiq. Shu aytganingizdan keyin Tursunxonning magaziniga kirdim. Bitta siniq shkopni qoqishyapti ekan. Shu keyin qaytayotib, bu domilla ulimni korib qoldim. Bu kishi Toshkanday joyda oqiydi, eshonbovomizning ullari. Otalari bilan yaxshi edik, u kishi, rahmatli, odam ayirmas edilar. Domilla ulimni kordim-u, u kishining ozlari kozimga koringanday bo'ldi. Bir korishib otay, tavarrik odamning bolasi, dedim. e-e, bizlarga qarz-da, ulim... erta-indin ozimiz ham borsak, nega kochada ulim bilan korishmadingiz, deb sorasalar, uyatga qolamanda... - Saidvobo oksinib, kozlariga yosh oldi-da,

keyin birdan gapni boshqa yoqqa burdi. – Ke, melisa ulim, seniyam bir qolingni olib qoyay!..

Melisa bu gapni kutmagan edi, noqulay bo'ldi, yuzini burib, cholga qolini berdi. Chol uning qolini mahkam ushlab, xuddi molbozorda bor-baraka qilayotgandek o'ktam-o'ktam siltadi:

- yaxshimisan? Tan sovliqmi? Munday sorashda-e, ulim, biz ham tavarrik, etmish beshga chiqdim. Musulmon bolasisan – sorash, yaxshimisiz, bovo, damlikkina yuribsizmi, de, shunday yuring, de. Etmish beshga chiqdim man, ulim, sizning yoshingizga etaylik, bundan ham otaylik, de Men ham seni duo qilay! Baraka top, ulim, deb aytay! Ko'p ham shapkangga mast bo'laverma. Paxta, paxta, deysan, mana, paxtaning ichida qaridik, kelgan joyimiz shu...

Melisa yigit sal-pal qizarinib, cholning gaplaridan jinday hijolatga tushdi, lekin uning gapini kesdi:

- Boldi, ota, boshni qotirmang. Ko'rishdingiz, ishingiz bitdi, endi keting.

Saidbovo unga xotirjam qaradi, lekin alami ichida ekan:

- Ketaman, ko'rishish bizga qarz edi, uzdik. Kongilxotirjam. endi oborib tiqib qoysang ham, mayli, - dedi.

- Bovo, iltimos, qonimga tashna qilmang, - dedi melisa yigit endi zorlanib.

Saidbovoning lablari titrab ketdi, oksik bir o'jarlik bilan gapdan qolmadi:

- Qamaysan-a! Ko'rishganga qamaydigan zakon yo'q, qopqora qol xalqlar bor-ku, oshalarning sodida ham yo'q! Odamlarni muncha qon qaqshatma. Bu uchun hukumat senga shimildiriq ham bermaydi: Qaytangga yomon bo'lganing qoladi. Mana, bola yoshimizdan shu paxtaning ichida, umrni shu paxta edi.

Kokragimga bitta temir ham taqqani yo'q! Sen bo'lsa, ~aziraning bozorini yopib, hammaga do'q urasan...

Melisa yigit alam bilan bir narsa demoqchi edi, chol gap bermadi, melisa "bor-e!" degandek, ters burild.

- Oborib tiqib qoyaman emish! Oborib tiqsang, nima, meni ishlatarmidi? Hukumatning tekin nonini eb yotaveraman.

Melisa shaxt bilan cholga qaradi:

- Menga qarang, boboy, ketasizmi, yoqmi? Etmish beshga chiqdim, endi menga hech kim teginolmaydi, deyapsizmi yo?

Saidbovo bu gapdan cho'chigandek:

- Ketaman, ulim, ketaman... - deb g'uldiradi, lekin ketish oldidan, yo alami bosilmagan, yo endi melisaning "oborib tiqib qoyishi"ga qol siltadimi, uzib oldi: - Hammani onasi tug'adi, seni, ulim, bilmadim...

Boboy gapini tugatmay, yo'lini ~aravtepasiga buraverdi.

Melisa chichonglab ketdi:

- Ov, boboy, toxtang! Toxtang, deypman!

Saidbovo osha yoqdan turib:

- Kiptingga shapaloqday narsani yopishtirib... - dedi-yu, gapini tugatmay ketaverdi.

Özi shusiz ham ichimda cholning gaplariga besh ketib turgan edim, kulib yuboribman.

Melisa yigit shart menga o'girildi, men ataylab cholning orqasidan tikilaman, bunga qaragam – tamom. Kozimning qirida kuzatyapman: alami olti, hozir menga yopishadi!

- Nega kulasiz? Ochib otiribdimi? – dedi u.

- Shunga kulyapman, - dedim.

Özi tilim yomon, lekin nariroqda xotinim turibdi, nima qilay?

Melisa yigit uncha tushunmadi:

- Nima shunga? Maymun o'ynatyaptimi sizga? – dedi.

- Anavi boboy o'ynatdi shekilli, - dedim.

U yana tushunmadi, lekin mayna qilayotganim etib bordi.

- Kuldirib qoyaman lekin! – dedi.

- Men o'zim xohlasam kulaman, - dedim.

- Bu erda men ruxsat bersam kulasiz, - dedi melisa.

- Saidbovo nariroqqa borib, toxtab qoldi. Men xotinimga qarab qoydim. Boshqa joyda bo'lsa, ochig'i, shu siyqa bosh bilan aytishib otirmasdim, endi kech, bir yog'i – alam qilayotgan edi baobro' bir redaksiyada ishlasam, o'z qishlog'imda, xotinim, yana shuncha odamning oldida bir yosh bola, elkasida shapaloqday pogoni bor uchun menga ham doq' ura!

Ha, aytmabman, chorrahada bizdan ham boshqalar bor edi. Terim deb hammayoq taqa-taq bo'lgani bilan, yo'lning u yog'idagi d'kon ochiq. Katta-katta ko'zli derazasida och-tortta bosh qimirlab turibdi, beriroqda Shafolat xola hamishagidek pista sotayapti, uning tepasida Hoshim aka bilan ikkita o'smir, biri Xolmat akaning, biri ergash akaning bolasi, og'izaridan pista chopoq xuddi kurak chuyiydigan mashinadan chiqqandek otiladi, ko'zlari boshqa yoqda-yu, lekin quloq ding – bu erdan ketar-ketmasimizdan ~azirani unday depti, bunday bo'пти degan mahovat bosishi tayin.

- Menga ruxsat tepadan keladi, j'ora, - dedim.

Melisa yigit bir odim chekinib, meni boshdan oyoq-kuzatib chiqdi, boshqa gap topolmadi shekilli:

- Nima qilay shunga? – dedi. – Ana, ostanopkaniyam tepadan aytib surdirishgan. Bu erda odamlar turmasin, degan.

- Doim shu erdan ketaman. Turaman!
- Nega turar ekansiz!
- Moshin poylab.
- Moshin poylashga, ana ostanopka, deya pman-ku!
- Doim shu erda boʻlgan.

Rostdan, bekat azaldan shu erda edi, ong'ay, uch tomondan - ~azira, Stalindan keladigan, idoradan chiqqan mashinalar ham shu erdan o'tadi, lekin bular idora to'g'risida odam uymalashmasin deb, tort yuz metrcha uzoqqa surgan.

- Boring, dedimmi – boring!

Bitta o'zim bo'lganimda “Ke, qo'y, mendan o'tgan bo'lsa, kechir, Saidbovo uchun ham uzr, aytishadigan narsaning o'zi yoq-ku oramizda”, deb aytardim, faqat yangi bekatga bormasdim, turgan gap. Lekin do'kon derazasidagi kallalar qimirlamay qo'ydi, pista chaqayotganlarning ham ko'zi bizda, xotanim bechora bolasini mahkam bag'riga bosgan, Saidbovo bechora sal nariroqda ketolmay qarab turibdi...

- Bormasam-chi? – dedim.

Bu odamning bosh-oyog'iga qarab chiqishdan boshqa narsani bilmaydi shekilli, yana shunday qildi, keyin birdan:

- Sizda butkul vijdon yoq, - deb qoldi, xuddi o'sha vijdon ko'kragimda osilib turishi keragu bu izlab topolmagandek.

- Qaydan bildingiz? – dedim ajablangan bo'lib.

- Korinishingiz aytib turibdi, - dedi u. – Vijdon bo'lsa sizda, xalq ishga ko'milib yotgan bir vaqtda shlyapani qonqaytirib, galstukni osiltiri-ib yurarmidingiz? Tag'in xotiningizni ergashtirib olganingizga o'laymi! – Bunaqa ma'ruzaxonlikning havosini olgan ekan, menga gal bermay balandlab ketdi: - Vijdoni borlar hozir dalada, partiyamizning topshirig'ini bajaryapti, davlatning ishini qilyapti. Sizda vijdon bo'lsa, bunaqa shirdinglab yurarmidingiz? Xalq ertayu kech mehnatning tagida yotgan paytda oyoqni holga tegizmay bunaqa olifta yurish uchun vijdonni yutgan bo'lishi kerak odam...

Melisaning valdirashidan miyamga og'Riq kirib, chakkam tirishib ketdi, u meni ustimdan kulyapti deb oylab, birdan boshqa alfozda baqirib berdi:

- Kuldirib qoyaman lekin! Bu erdagilar erda yotgan kartishka emas! Osmondan oyog'ingni osiltirib tushgan bo'lsang ham... Menga desa Brejnevgga bormaysanmi keyin! Bor, ana, Rashidovga! Bizga o'zi shunday topshiriq bergan: senga oxshagan tekinoxor, tuniyatlarni qama, deb!

Bu ortada Saidbovo g'ir etib yonimizga kelib oldi, bechora chol qorqib ketgan, bir melisaga yolvorib qaraydi, bir menga mo'ltiraydi deng.

- Yog'-e, menga bu kishi boshqacha aytgandilar, - dedim, boshqa gap topolmay.

- Yog'emi? Qani, dakimentti ol!

- Nima qilasan? – deim bir gapdan qolgim kelmay.

Saidbovo “Jo-on ulim, unday qilmang, qoying!”, deb bir melisaga, “eshonbovo, siz – katta, xop, deng, sizdan lozim” deb menga yalindi, ish chiqmagandan keyin: “e-e, ulim, meni deb boldi, ularim!”, deb javradi.

- Ol, deyaqman! – U qaltqalt titrab qolini orqaga yubordi. Xizmat burchini bajarayotgan odamman, men bilan hazillashma!

Hali bu siyqabosh hammaning ortasida topponchasini oqtalmasa edi, deb, bir yog'i chochidim ham, haliroq bersam olamanmi shuni, g'alva chiqmasdi, deb darrov guvohnomamni uzatdim.

U guvohnomani bir ochib qaradi-yu, yopib ustidan dutor chalayotgandek chitirlatib tirnoq urdi-da, menga bepisand tikildi:

- Ah-ha, san'atchi! – deb zahargina iljaydi. – O'zim ham aytdim: nega bunaqa shirdinglab yuribdi deb. Bu galstuk, shlyapalar... “KPZ”da bir san'atingizni korsatasiz endi...

Rosti gap, angrayib qoldim, baloni ham tushunmadim.

- endii moshin ushlasak boldi, - dedi u va xuddi shunday qilsa, darrov mashina kelib qoladigandek, yo'l ortasiga chiqdi, bir zum Stalin tomonga tikildi, yana qaytib keldi, sal noqulay bolib, ozicha “Xo-osh”, deb qoydi.

Saidbovo bechora hali ham “Ullarim, ularim, unday qilmanglar-ey! Men benavat-ku!” deb turibdi. Shunda birdan miyamga urdi:

- Faqat farosatdan desam, savoddan ham urib ketgan shekilli? – dedim.

- Bitta hujjatni tog'ri o'qiyolmasang!

U menga bir olayib qaradi, dovdiraganini bildirmaslikka tirishdi.

- O'qi! – dedim. – San'atdan boshqa so'zlar ham bor. “Gazeta redaksiyasi”, “muxbir” deb yozib qoyibdi! Kim seni elkangga katta serjant degan “lichka”ni yopishtirgan o'zi?

- Pogonga til tekizmang, - dedi u endi sal past tushib. – Buning javobgarligi bor.

- Sen qolingdagini o'qigin, keyin gaplashamiz, - dedim.

U avval atrofga alanglab oldi-da, guvohnomani ochdi, goyo u erda juda ko'p narsa yozilgandek boshini ancha egib turdi, keyin mendan ko'zini olib qochib, sekin xotinimga qaradi, do'kon tomonga alangladi, chaynalib, og'irligini u oyog'idan bunisiga tashladi. Bir zum jim qoldik, u ikkilanayotgan edi. Saidbovo ilinj bilan unga “Uljonim! Ulim!...” dedi. Melisa boboyga qarab sekin: “Ota, siz

ketavering! Özimiz kelishib olamiz”, dedi, Saidbovo elkasini qisib, ketolmay turaverdi.

Mening alamim bosilmagan edi:

- Kim tog'ri kelsa, oborib tiqib qoyaverasanmi, og'ayni? Balki men davlatning muhim topshirig'i bilan yurgandirman, -dedim.

- Boshdan shuni aytmysizmi? Oborib tiqib qoyganimda, bilasizmi, sixni u erda nima qilishardi? – dedi melisa yigit engil tortib.

- Elkaning ustida bir narsani kotarib yurgan odam tiqib qoyishdan oldin surishtiradi: kim, qaerda ishlaydi, deb...

- Ey-y, aka, kalla qoladimi, dakimentingizdan faqat “san'at”ini oqibman, savoding yoq deb erga urmang, - deb xunob boldi u. – endi... ishimiz shuda. Bajar, desa – bajaramiz. Topshiriq qattiq. Odamlar yurmasin kochada, deyishgan. Mana, kurayapsiz-ku odamlarni, gap ta'sir qilmaydi! Todalashmanglar shu erda, kattalar otadi, kozi tushsa, menga gap tegadi, deb tushuntirganni tushunishmaydi. Bilmayman, bularni onasi kochada tuqqanmi! Bu erdan haydasam - ~azirada! U yoqdan haydasam – bu yoqqa! Shunday vaqtda nima bor kochada desam, magazinga, deyishadi. Magazinga bolsa, keragingni ol-da, ket! Ana qarang, turishibdi, men aytmaguncha turaverishadi-ey! – U shunday deb dokon oldida tizilishganlarga qichqirdi: - O-σ, albatta men aytishim kerak-da, a sizlarga? yo kansert bo'lyaptimi? Qani! Shapaat opa, kotaring torvangizni, men sizga bir soatga mayli deganman, boring!

- Dokon oldidagilar bamaylixotir ichkariga kirishdi, “Shapaat xola” pistaxaltasini og'zini yopgan boldi, xolos, lekin tomosha toxtaganiga hafsalalari olib, nariroqqa jildilar.

- Hozir, qarab turing, yana chiqishadi, gap otmaydi bularga!

- Odamni oyog'idan bog'lab qoyib bo'lmaydi, og'ayni, - dedim – endi sekin balanga chiqib, bildirmay ochimni olishga otdim. – Xudoyim uni erkin qilib yaratgan. Xohlasa yuradi, otiradi, yonboshlaydi...

- Mayli, lekin shuni uyida qilsin, - deb u ozinikidan qolmadi. – Kochada balo bormi! Men ularni uyiga kirib tekshirmayapman-ku, axir.

- Kocha ham odamlarga qilingan, - dedim. – Molpodaga emaski, bitta cho'pon qoyib qoyadigan.

- E-e, men kompaniyani aytyapman, - deb xunob boldi u. – Yigirma kun chidab berishsin – boldi! Cho'pon... nimam cho'pon? Qanaqa sokish eshitishimni bilasizmi? Bular, orqadan sokada, lekin u yoqda raykom bor! Mana, kechagi bozor, qor urib turibdi. Odamlar insofing bormi, kartishka-partishka olib olaylik, bir soatginaga och, deb chuvvos yopishishdi menga. Qor-ku, e-ertalab bolsa, shu havoda kim ham dalaga chiqardi, debman. Mayli, yarim soat muhlat, bozorlaringni qilib olinglar, lekin xafachilik yoq, dedim.

Saidbovo:

- Shunday, shunday, bozorni ochib berdingiz lekin, - dedi qimtinib. – Vallamatlik qildingiz, mayli, bozor qilib olinglar, dedingiz.

Mashinadan darak yoʻq, melisa yigit qollarini siltab-siltab kuyinib gapiradi, dōkondagilar qaytib chiqqan, “Shapaat xola” joyida, oʻsmirlar sal nariroqda, men, ikki qol chōntakda, gōyo shu melisaning kocha kiyimidagi kattasi, arzini tinglayapman. Melisa yigit boyagi baqirganlariga kechirim soragan alfozda: “Hozir, yanga hozir” dedi, men “Ha bozorni ochdingiz, keyin?” dedim.

- Odamlar endi darvozadan kirib, savdoni boshlagan edi, babillab qora “Volga” keppoldi. Odamlarga hech narsa degani yoʻq. Menga qarab: “Onayni falon sani! Sanga shapka kiydirganni onasini!” deb ke-etdi!..

- Kim? Raismi?

- Yoʻ-o. Raykom! Amir ~apporovich! Bir urdi, haliyam betimga tegmadi, lekin shapkam uchib ketdi.

Boya aytishish bilan ovora, faqat betiga qarabman shekilli, endi razm kolsam, melisa pachοqqina yigit ekan, burni kōkarib, suvlab turibdi, qorin jonirovdan yoʻq, kitel xalta osilgan, kamar qiyshayib, orqaga tortib ketgan, shim shalviragan, tumshugʻi tirish etikdan sachragan loy belgacha urgan...

Unga qarab qoldim, halidan beri konglimni bosgan bir gʻashlik, ojar bir gunohkorlikka oʻxshagan tuygʻuni anglagandek bōldim, melisani hali u Saidbovoga baqirmagan, men bilan manjashmagan, umuman hali yonimizga etib kelmagan payti – unga kōzim tushgandayoq yomon korib qolgan, yoʻq, ustidagi rasmiy kiyimi milisionerligi uchun emas, yoʻq, aytayapman-ku, hali menga baqamti bōlishidan oldin deb, u har qishloqqa kelganimda qora mehnat, ogʻir ketmondan qochib, oqishga kirganim, bitirganimdan keyin shaharda qolib ketganimga tirik ta'na bōlib kōringan, men esa himoyaning eng yaxshi yoʻli deb xujumni tanlagan ekanman.

Endi uning rasmiy kiyimni ham eplab kiya olmagani, abaroi kongli ogʻriganidan ogʻzi kopiklanganini ham sezmay xasratidan dasturxon yoyishiga qarab turib, atay ermaklaganim, “KPZ”i ham shunchaki gapdan engish uchun pōpisa ekanini, xōp, ana, olib borgan taqdirda ham u erdagilar, oʻz tumanidan poytaxtga borib ishlayotgan muxbirini oyoqosti qilmasliklarini bilib turib hamqishloqlar ayniqsa xotinim oldida bir kōrsatib qōymoqchi bōlganimga, lekin, yana, baribir, guvoohnomani kōrsatishga togʻri kelganiga uyalib ketdim.

Bu gaplarning bari konglimda mubham bir gʻashlik bōlib turgan edi, melisaning hasrati endi uni tinitib, tubida yotgan narsalarni ochib qōydi.

- Ishni shu odamlar qiladi-ku, raykomning oʻzi loy kechib paxta termaydi! Bozorni bir soatginaga ochganga shunchami?! Mayli, shu odamlarni deb sōkish eshitaman, lekin, baribir, birontasi, ey inson, sōksang, oʻzini sōk, onasida nima ayb, demagani botib ketadi. e-e, bechoralarga nima ham deyman, hammamiz shunday. Lekin, raykom, meni tumonatning ichida tepkilab, yana qanday bularni chizigʻingga sol, deydi? Shuni oʻz kōzi bilan korib turganlar meni uch pulga

oladimi? Raykomga nima, sòkdi, sòkdi, keyin ketdi-bordi! elga ropara bòlib men qoldim. Nima qilishim kerak? Ketvoray desam – ish bu, tirikchilik degan narsa bor. He, mayli-da, biz bir kichkina odam, melisalikni ham qilish kerak, bari bir. Betni qalin qilib yuribmizda...

Gap bilan yonimizga sariq “Jiguli” kelib toxtaganini sezmadim. Melisa yigit, shartta uning eshigini ochdi.

- Qayoqqa boryapsiz? – dedi.

Haydovchi egilib, bizga qarab jilmaydi – Tursunxon ekan.

- Jomboyga. Mol gaplashaman, - dedi u melisaga.

- Bòlmasa, gap bunday – shu akani Perekroskaga tashlab o'tasiz, - dedi melisa ukam, - bolalar bilan turib qoptilar.

- Mayli... mayli, o'tiring! – dedi Tursunxon menga ma'noli qarab qoyib.

- I-i, yanga og'ilchanning boshiga bohor bòling, - dedi melisa mashinaning orqa orindig'iga otirayotgan xotinigam.

Keyin u qolimni mahkam qisib, siniq iljaydi:

- Aka, xizmatchilik, xafa bòlmaysiz-da.

U xuddi ukamdek, yuragim achishdi.

- Bòladi-da shunaqasi ham, bizdan ham otdi, - dedim boshqa gap topolmay.

Lekin men hali mashina eshigini yopib ulgurmay, u dèkon oldidagilarga baqirdi:

- O-o, necha qoqqan qoziqday turibsizlar? Necha marta aytish kerak sizlarga! Tomosha tugadi-ku...

Tursunxon vang'illatib gazni bosgandan keyin Saidbovo bilan xayrlashmaganim esga tushib, orqaga ogirilib, boboy, xuddi ta'zim qilayotgandek, chakmonining englarini kiyishtirib, melisa “uli”ning yonidan ozoqlashib biz ketayotgan yòldan kelayotgan edi, qolimni kòtardim, turgan gap, mashina ichidan kòrinmaydi, chol ham boshini egib olgan, biz tomonga qaragani yoq.

Yolda ketyapmiz, Tursunxon soradi:

- Nimaga shu bilan solishib yuribsiz?

- Siz qayoqdan bildingiz? – deb xayron bòldim. – yaxshi gaplashib turganimizda keldingiz-ku.

Tursunxon yòldan kòzini uzmay kuldi:

- Telefon bor-da. – Keyin menga qarab izoh berdi. – ergash akaning bolasidan shu gapni eshitdim-u, tag'In sizni ovora qilib yurmasin, deb moshinni bosdim, bòlmasa Jomboyda ishim yoq. Uning o'zi bola yomon emas, Nurmat akaning bolasi-da, yakanshihdan beriroqdagi qishloq... oti tilimga kelmayapti, shu

erdan, tanimaysiz. Qishloqdan chiqib ketgansiz-da, bizlarni zorg'a taniysiz-u...
Ha, rost-da, bir xil vaqti salom bersak – kormaysiz...

- Ja gapni opqochasiz-da lekin, - dedim-u, bari bir, xijolatda edim.

Mashinaning ichi issiqqina edi. "Shu Tursunxon juda oqibatli yigit-da", deb oyladim.

Qishloqdan chiqib ketayotgan edim.